



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

ZULFIA IS THE SYMBOL OF LOYALTY

Usarova Laylo Ibragimovna¹

Tarmashboyeva Parizoda Boburovna²

Uzbek-Finland Institute of Pedagogy

KEYWORDS

Longing, spring, man, life,
peace, poems, life partner

ABSTRACT

In this article, brief information about Zulfiya's life and work, poems, and analysis of his suitability for both big and small was given.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.10370255](https://doi.org/10.5281/zenodo.10370255)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Uzbek-Finland Institute of Pedagogy, Uzbekistan

² Uzbek language and literature student, Uzbekistan-Finland Institute of Pedagogy, Uzbekistan

ZULFIYA - VAFODORLIK TIMSOLI

KALIT SO'ZLAR/

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Sog'inch, bahor, inson,
hayot, tinchlik, she'rlar, umr
yo'l dosh

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada Zulfiya hayoti va ijodi, she'rлari, katta-yu kichikka birdek mosligi va tahlili haqida qisqacha ma'lumot berib o'tildi.

Taniqli shoira, jurnalist, tarjimon, jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yil 1- martda Toshkent viloyatida Isroil temirchi oilasida tug'ilgan. Bolaligidan she'r yozishga mehr qo'yan. Shoirani doim qo'llab-quvvatlagan ota- onasi farzandlari ilmli bo'lislolarini xoxlashardi va niyatlari amalga oshdi ham. Zulfiyani dunyo tanidi, she'rлari, kitobalari ko'plab tillarga tarjima qilindi.

Shoira 17 yoshida "Hayot varaqlari" nomli ilk kitobini chop ettirdi. She'riy kitobiga bunday nom bergenini keyinchalik kulib eslab " 18 yoshli qizda qanday hayot varaqlari bo'lishi mumkin edi" deydi.[1;28]

Zulfiyaxonim ota- onasini eslar ekan: "Otamni Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edilar, otamning hamma vaqt olovga yo'l dosh kasbidan faqat zavq ko'rар edim. Otamdek qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali hanuz otamdek bo'lishni orzu qilaman. Ammo nailoj inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirishga har kim ham muyassar bo'lavermas ekan.

Mening onam o'zining ta'biricha "usti butun ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi. Fikrlari, o'ylari mudroq emasligini unga mutelik, zaiflik yod ekanligini bilar edim". [1;67]

Zulfiya hayoti davomida turli yirik nashriyotlarda ham ishlagan. Shulardan: "O'zbekiston xotin-qizlar" jurnalida bo'lim mudiri, Yoshlar va o'smirlar adabiyoti nashriyotida muharrir kabi. Va shoira O'zbek ayollarini dardini, quvonchini, istiroblarini kuylagan. Shu o'rinda u ibrat olishga arzigulik ayol, mehribon ona, vafodor rafiqha hamdir.

Ayolga baxt bering saodat bering

Demang yuribtiku kulib, jilmayib.

Ayol kulib turib o'lishi mumkin

Dunyonni olishi mumkin jilmayib.

[4;116] Shu kabi satrlarida ham ayol qanchalik nozik xilqat ekanligini, unga faqat baxtli yurish yarashishini va ichida dardi, istirobi, oilasi, farzandlari tashvishi ko'p bo'lsa ham kulib yurishga kuchi yetishini tasvirlaydi. "Kulib turib o'lishi mumkin", -deydi.

Iqtidorli shoira, yozuvchi, inson qalbidagi yaxshi hislatlar kuychisi turli janrlarda ijod qilgan. Dostonlar, balladalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publistik maqollar kabi.

Zulfiyaxonim she'rlarini o'qir ekanmiz, unda tasvirlangan hodisalar, voqealar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shoira his qilgan tuyg'ularni his qilamiz, boshimizdan kechiramiz. Shoira she'rlarida bahor, sog'inch, g'am-alam, shukronalik tuyg'ulari juda chiroyli tasvirlangan.

Yozuvchi, muharrir Oydin Sobirova va Hamid Olimjon doim birga ijod qilishar edi. Muharrir Zulfiya va Hamid Olimjonni turmush qurish niyatlarini eshitib juda hayron bo'lgan ekan. Ularni shuqadar beg'ubor ikki kapalakka o'xshatib, shuncha payt ularni birgaligini, bir-birlariga nisbatan shunday tuyg'ulari borligini sezmay qolganini aytadi.[3;76]

Zulfiyaning she'rlarida sof muhabbat tuyg'ulari jo'shqin tavfsif etilgan. Ayniqsa, turmush o'rtog'i Hamid Olimjonni xotirlab yozgan "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Xayollar", "Sog'ish" kabi she'rlari judaham ta'sirli. Shoir vafod etganda usiz shodlik ham Zulfiyani tark etganini, qalbi bilan tanho qolganda har doimgidek umr yo'ldoshini eslashini she'rlarida yozadi. Zulfiya hayotining qolgan qismini esa Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish, davom etish va nashr etishga bag'ishladi.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda

Hayotni kuylayman, chekinar alam.

Tunlar tushimdasan kunduz yodimda

Men hayot ekanman, hayotsan senham.[4;117]

Deya shoira umr yo'ldoshi har doim uni qalbida ekanligini kuylaydi. Shu satrlardan ko'rini turibdiki shoira umr yo'ldoshiga vafodor va u haqiqiy vafodorlik timsoli. Bundan tashqari shoira insonlarni orzu qilishdan, umid qilishdan, intilishdan to'xtamay yashashga undaydi, hayotingiz o'z qo'lingizda ekanini uqtiradi. Harakat qilsangiz baxtli bo'lishingiz o'zingizga bog'liq ekanligini eslatadi. Orzuni ham baxtni ham o'zimiz yaratamiz.

Orzu bo'lmasaydi odamzod, albat

O'zi kashf etardi kashf etgandek baxt.[4;86]

Demak, baxtli bo'lishimiz o'z qo'limizda. Aslida baxt yonimizda bo'ladi, shunchaki uni ko'ra bilishimiz, uning uchun harakat qilishimiz lozim bo'ladi.

Ayniqsa, validasini madh etib yozgan she'rlari insonnig tuyg'ularini jumbushga keltiradi. She'rni o'qir ekansiz o'z onangiz va sizni dunyoga keltirib, ulg'aytirib chekkan dardlari, ba'zida xafa qilib qo'yaningiz yodingizga tushadi.

Tug'ilganman qaysi sanada

Qancha muddat siz yegansiz dard.

Qiz tug'ilish dardi odatda

Bo'lgan ekan sizda beshavqat.[4;45]

Ushbu she'r qadrli onalarimizni sevishga, hayotligida qadriga yetishga undaydi. Qiz farzand ota uyida mehmon. Shu sababli ham o'z uyidan uzoqlashganda onasining qadri ko'proq bilinadi va o'zi ham ona bo'lganda o'z onasini tushuna boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyotga ega.

She'rlari bizni o'ylashga, fikr yuritishga undaydi va ba'zida o'zimizga kerakli xulosa chiqaramiz, ba'zida beg'ubor tuyg'u bilan yozilgan she'rlarini miriqib o'qiyimiz. Yuzimizda tabbasum uyg'onadi, ko'nglimizda muhabbat tuyg'ulari jo'sh uradi. Shoira biroz o'ychan, ba'zida jiddiy, mehribon ona. Uning she'rlarida makon va zamon chegarasi, o'tmish, bugun va kelajak voqealari, inson taqdiri tasvirlanadi.

Hukumatimiz shoiraning madaniyatimiz, adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo'shgani sababli Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etdi. Toshkent ko'chalaridan biriga uning nomi berildi. Bundan tashqari Hamid Olimjon va Zulfiya hayotiga bag'ishlab 2022- yilda "Muhabbat bahori" nomli badiiy film suratga olinganini ham bilamiz. Bu esa shoira xotirasiga bo'lgan hurmatning isbotidir. Taniqli shoiramiz Zulfiyaxonim Isroilova 1996-yil 1-avgust kuni vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zulfiya (Bibliografiya) Toshkent, 1977
2. Sultonova M, Ijod sahifalari, Toshkent 1975
3. Tanlangan asarlar (3 jildli) Toshkent 1985
4. Zulfiya "Saylanma" Toshkent 2016